

EKGNING YURAK KASALLIKLARINI ANIQLASHDAGI O'RNI

Tog'ayeva Gulchiroy

Toshkent davlat tibbiyot universiteti

Davolash fakulteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20174534>

Annotatsiya

Elektrokardiografiya (EKG) yurakning bioelektrik faoliyatini qayd etuvchi asosiy noinvaziv diagnostik usullardan biridir. Ushbu tezida EKGning yurak ritmi buzilishlari, miokard ishemiyasi va miokard infarktini aniqlashdagi diagnostik ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: elektrokardiografiya, miokard infarkti, aritmiya, ST segment, yurak ritmi, diagnostika.

Tadqiqotning dolzarbligi

Yurak-qon tomir kasalliklari hozirgi kunda dunyo bo'yicha o'lim va nogironlikning asosiy sabablaridan biri hisoblanadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, yurak ishemik kasalligi va aritmiyalarning global sog'liq muammolari ichida yetakchi o'rinni egallaydi.

EKG yurakning elektr faolligini qayd etuvchi asosiy noinvaziv diagnostik usul bo'lib, yurak patologiyalarini erta aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Shu sabab EKGning yurak kasalliklarini tashxislashdagi o'rni va diagnostik imkoniyatlarini o'rganish dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

Asosiy qism

Klinik ma'lumotlarga ko'ra, yurak-qon tomir kasalliklari orasida aritmiyalarning va miokard ishemiyasi eng ko'p uchraydigan patologiyalar hisoblanadi. Miokard infarktining erta bosqichida EKG o'zgarishlari 90% hollarda diagnostik ahamiyatga ega bo'ladi. EKG yurakning bioelektrik faolligini qayd etadi va quyidagi asosiy komponentlardan iborat: P tishcha (bo'lmacha depolyarizatsiyasi), QRS kompleksi (qorinchalar depolyarizatsiyasi) va T tishcha (repolyarizatsiya jarayoni). Ushbu elementlardagi o'zgarishlar yurak patologiyalarini aniqlashda asosiy mezon hisoblanadi. Miokard ishemiyasida ST segment depressiyasi yoki elevatsiyasi kuzatiladi, bu koronar qon aylanishining buzilganligini ko'rsatadi. Aritmiyalarda esa yurak ritmining buzilishi, ekstrastoliyalarning, taxikardiya yoki fibrillyatsiya EKG orqali aniqlanadi.

Natijalar

Elektrokardiografiya yurakning funksional holatini tez va aniq baholash imkonini beradi. EKG orqali yurak ritmi buzilishlari, ishemik o'zgarishlar va o'tkazuvchanlik bloklari erta bosqichda aniqlanadi. Bu esa kasallikning og'ir asoratlarini oldini olishda muhim klinik ahamiyatga ega.

Xulosa

EKG yurak kasalliklarini aniqlashda eng muhim, tezkor va noinvaziv diagnostik usullardan biridir. U yurak ritmi, o'tkazuvchanlik va ishemik o'zgarishlarini aniqlash orqali erta tashxis qo'yish va davolash taktikasini belgilashda katta ahamiyatga ega.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Guyton and Hall Textbook of Medical Physiology - EKG fiziologiyasi, yurak elektr faolligi
2. Braunwald's Heart Disease: A Textbook of Cardiovascular Medicine - yurak kasalliklari va EKG diagnostikasi

3. Lilly's Pathophysiology of Heart Disease - aritmiyalar, ishemiya, EKG o'zgarishlari
4. European Society of Cardiology klinik tavsiyalari - EKG interpretatsiya va diagnostika
5. World Health Organization – yurak - qon tomir kasalliklari statistikasi.

